

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA
ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI**

¹Mallayev Normamat Ramazonovich

¹Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

²Xushboqova Nigora G‘ayrat qizi

²Termiz davlat universiteti

Advokatlik faoliyati mutaxassisligi 1-kurs tinglovchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlariga berilgan konstitutsiyaviy kafolatlar ko‘rib chiqilib, ularning huquq tizimi doirasidagi o‘rni ta’kidlangan. Unda prokuratura organlarining funksiyalari va mustaqilligini ta’minlovchi huquqiy me’yorlar tahlil qilingan bo‘lib, ushbu kafolatlar adolatli sud muhokamasi huquqlarini ta’minlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va shaxslar huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi batafsil bayon etilgan. Maqolada tegishli konstitutsiyaviy moddalar, normativ-huquqiy hujjatlar va rivojlanayotgan sud amaliyotini o‘rganish orqali O‘zbekistonda prokuratura organlari oldida turgan vazifalar yoritilgan va bu kafolatlarni mustahkamlash bo‘yicha potentsial islohotlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiyaviy kafolatlar, prokuratura organlari, jinoiy sudlov, O‘zbekiston Respublikasi, qonunchilik asoslari, adolatli sudlov huquqlari, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, huquqiy islohotlar.*

KIRISH

Har qanday huquq tizimida prokuratura organlarining o‘rni muhim, chunki ular jinoyat protsessida davlat vakili bo‘lish uchun mas’ul bo‘lgan asosiy



institut bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu subyektlarga berilgan konstitutsiyaviy kafolatlar jinoiy sudlov tizimining keng kontekstida prokuraturaning yaxlitligi va samaradorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qonuniylik, xolislik va adolatlilik tamoyillarini ta‘minlash maqsadida o‘rnatilgan ushbu konstitutsiyaviy qoidalar nafaqat prokuratura organlariga vakolat berish, balki jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga ham qaratilgan.¹ O‘zbekistonning 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng qonunchilik bazasi sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, bu esa mamlakatning yanada adolatli va shaffof huquq tizimini yaratishga intilishini aks ettiradi. O‘zbekiston huquqiy islohot va modernizatsiya murakkabliklarini yo‘lga qo‘yishda davom etar ekan, prokuratura organlariga berilayotgan konstitutsiyaviy kafolatlarni tushunish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kafolatlar tergov ishlarini olib borish, sudda ishlarni ko‘rib chiqish va odil sudlovni umumiy amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqola O‘zbekistonda prokuratura organlarining vakolatlari va majburiyatlarini belgilab beruvchi aniq konstitutsiyaviy qoidalarni o‘rganishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokuror nazorati davlat faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari,

¹ Muxammadjonov, J. (2024). FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG‘ULLANISH HUQUQINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY SHAKLLARI HAMDA QONUNCHILIK ASOSLARI. Nordic_Press, 3(0003).

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mtalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Prokurorlar o‘z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, mu assasalar, tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar qonuniylik prinsipiga rioya qilgan holda faoliyat ko‘rsatishlarini kuzatib boradilar. Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan na zorat prokuror nazoratining alohida muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi barcha prokurorlar qonunlarning aniq bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuni nazarda tutish ke rakki, Konstitutsiyaning mazkur moddasida qonunlar tushunchasi keng ma’noda ishlatilgan. Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan «prokuror nazorati» deyilganda prokuror ning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, kons titutsiyaviy qonunlari, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ning farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishi tushuniladi. Prokuror nazorati – bu davlat nomidan maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar – prokurorlarning qonun buzilishlarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish orqali qonunlarning aniq bajarilishini va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan faoliyatidir. «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunning 2-moddasi O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari

SJIF:5.219



qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mus tah kamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratligini belgilaydi. Davlat faoliyati turi sifatida prokuror nazorati predme ti deganda prokuror faoliyati tartibga solishga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar sohasi tushuniladi. Prokuror nazora ti mohiyatidan prokuror faoliyati Konstitutsiyaga rioya qilish va qonun talablarini bajarish bilan bog'liq ijtimoiy muno sabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Chunki Konstitutsiya va qonun talablariga rioya qilish u taalluqli bo'lgan barcha jis moniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lganligi sababli prokuror nazoratining predmeti sifatida Konstitutsiyaga rioya qilish hamda yuridik va jismoniy (mansabdor) shaxslarning qonunlarni bajarishi hisoblanadi. Prokuror nazorati obyekti prokuratura organlari qonunlar ijrosini tekshirishni o'tkazadigan korxona, muassasa, tashki lot va boshqa yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respub likasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi va mazkur qonunga ko'ra fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi, chunki demokratik jamiyatda fuqarolar emas, balki ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga qanday rioya etilayotgan ligi prokuror nazoratining obyekti hisoblanadi. Prokuror nazorati subyekti deganda mazkur faoliyat ishti rokchisi – prokuror tushuniladi. Prokuror vakolatlari – bu nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun prokurorda mav jud bo'lgan huquq va majburiyatlar majmuidir. Prokuorning asosiy vakolatlari «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda belgilangan. Prokuror vakolatlari doirasi va mazmuni u

qaysi yoʻnalishda prokuror nazoratini amalga oshirishi bilan shart langanligini eʼtiborga olish lozim.

Konstitutsiyaning sharhlanayotgan moddasida prokuratura or ganlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsip laridan biri boʻlmish markazlashganlik prinsipi oʻz aksini topgan. Prokuraturaning markazlashganligi quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorga, barcha prokurorlar esa butun prokuratura organlari tizimiga rahbarlik qiladigan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga boʻysunishini anglatadi. Mar kazlashganlik prinsipi qonun bilan belgilangan prokurorlarni tayinlash tartibida toʻgʻridan-toʻgʻri namoyon boʻladi: Qoraqalpogʻiston Respublikasi prokuroridan boshqa barcha pro kurorlar (viloyat, tuman va shahar prokurorlari) Oʻzbekiston Res publikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi. Prokuratura organlari markazlashganligi butun davlat hududida yagona qonuniylikni taʼminlash zarurati bilan yuzaga kelgan, bu esa prokurorlarga faqat yagona markazdan rahbarlik qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.² Yagona qonuniylikni taʼminlash prokuratura organlarining shunday tashkil qili nishini nazarda tutadiki, unda Oʻzbekiston Respublikasi butun hududida prokuror nazoratini amalga oshirish uchun yagona talab lar taʼminlanishi lozim boʻladi. Markazlashganlik prinsipi quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchilarga qatʼiy boʻysunishini, shuningdek, prokurorlarning xizmat intizomi va xizmat javobgarligi xarak terini belgilaydi, bu esa butun prokuratura organlari tizimi ishi toʻgʻri tashkil qilinishining muhim sharti boʻladi. Bu prinsip

² Anvarjonov, X. (2024). NOGIRONLIGI BOʻLGAN SHAXSLARNI MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA DOIR QONUNCHILIK IJROSI YUZASIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALAR. NRJ, 1(4), 298-310.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yo'naltiriladigan va muvofiqlashtiriladigan prokuratura amaliyotining birligini ta'minlaydi. Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek, u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining mustaqilligi prinsipi davlat va siyosiy ahamiyatga ega³, chunki unga izchil amal qilgandagina prokuratura O'zbekiston Respublikasi butun hududida qonun ustuvorligini, qonuniylikning yagonaligini ta'minlashi, fuqarolarning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishi mumkin. Prokuratura organlari mustaqilligi prinsipining amalga oshirilishi uning tashkiliy tuzilishi, prokuratura xodim larining tayinlanish tartibi, prokurorlarning belgilangan bo'ysunish va hisob berish tizimi bilan ta'minlanadi. Shu ningdek, mazkur prinsipga amal qilinishining kafolati bo'lib prokuratura organlari faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslik qonuniy tartibda belgilanganligi; prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek, prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor

³ MURATAYEV, S. (2023). INSON HAMDA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARI. SJIF:5.219

etish, prokurorning talablarini bajarmaganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi. Bundan tashqari, prokurorning siyosiy mustaqilligi ko'rib chiqilayotgan prinsipning kafolati sanaladi: prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Har bir davlat va jamiyatda faqat maxsus davlat organlari tomonidan amalga oshiriluvchi funksiyalar mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish borasida davlat organlari ega bo'lgan huquqlarga jamiyat va davlatning boshqa subyektlari haqli emas. Davlatda bunday tartibning o'rnatilishi davlatning fuqarolar tinchligi va totuvligi, jamoat xavfsizligini saqlash borasidagi o'z vazifalarini amalga oshirishida xolislik va qonuniylikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Jamoat xavfsizligini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifa larni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi qonunlarga mutlaqo zid bo'lib, bunday hol uyushgan jinoyatchilik va davlat apparati da korrupsiyaga olib kelishi, eng yomoni – inson huquqlarining qo'pol ravishda poymol etilishiga sababchi bo'lishi dunyo davlatlari tajribasidan yaxshi ma'lum. XVIII–XIX asrlarda Italiyada jamoat xavfsizligini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida tezkor-qidiruv va sudlov funksiyalarini bajaruvchi jamoat birlashmalarining tuzilishi XX asr Italiya davlatchiligi va huquq tizimiga, mam lakat iqtisodiga va uning jahondagi obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatganligi hammaga ma'lumdur.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bosh qomusimizda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining konstitutsiyaviy kafolatlari bisyor. o‘zbekiston respublikasining prokuratura organlari o‘z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o‘zga tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlariga berilgan konstitutsiyaviy kafolatlar jinoiy sudlov tizimining yaxlitligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu qoidalar nafaqat prokuratura organlariga o'z vazifalarini bajarish imkoniyatini beradi, balki sud jarayoni doirasida shaxslarning huquqlarini himoya qilishga ham xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muxammadjonov, J. (2024). FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG‘ULLANISH HUQUQINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY SHAKLLARI HAMDA QONUNCHILIK ASOSLARI. Nordic_Press, 3(0003).
2. Anvarjonov, X. (2024). NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA DOIR QONUNCHILIK IJROSI YUZASIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALAR. NRJ, 1(4), 298-310.
3. MURATAYEV, S. (2023). INSON HAMDA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATLARI.